

Buxoro davlat universiteti
San’atshunoslik va pedagogika fakulteti
12-1cholg’u 24 guruh
Muhammadjonova Ruxshonaning
“Abu Ali Ibn Sino”
nomli viloyat kutubxonasiga tashrifi
Bayonnomasi

13.09.2024

Buxoro shahar

Eshitildi:

12-sentabr kuni San’atshunoslik va pedagogika fakulteti tyutori L.Kamilova o'ziga biriktirilgan 1-bosqich talabalari bilan darsdan keyin bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish maqsadida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish va onlayn kitob o'qish samaradorligini oshirish maqsadida “Abu Ali Ibn Sino” nomli viloyat kutubxonasiga tashrif buyurishdi. Tashrifdan maqsad talabalarni bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish hamda kitobxonlikni targ'ib etishdan iborat.



Buxoro davlat universiteti
San'atshunoslik va pedagogika fakulteti
12-1cholg'u 24 guruh
Muhammadjonova Ruxshonaning
BuxDU ARMga tashrif
Bayonnomasi

6.12.2024

Buxoro shahar

Eshitildi:

6-dekabr kuni San'atshunoslik va pedagogika fakulteti tyutori L.A.Kamilova tomonidan o'ziga birlashtirilgan akademik guruh talabalari bilan birgalikda talabalarni kitobxonlikka yo'naltirish va darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish maqsadida BuxDU ARMga tashrif buyurishdi. Tashrif davomida kutubxonada mavjud bo'lgan mutaxassislikka oid yangi o'quv va badiiy adabiyotlar bilan tanishtirildi. ARMning elektron sahifasiga a'zo bo'ldik.



Buxoro davlat universiteti
San'atshunoslik va pedagogika fakulteti
12-1cholg'u24 guruh talabasi
Muhammadjonova Ruxshonaning
“ Kitob mutolaasi”
Bayonnomasi.

6,04,2025-yil Buxoro shahar.

Eshitildi:

Kitob mutolaasi va kitobxonlik _ madaniyati.
Har birimiz, qaysi kasb egasi bo'lmaylik, imkon va sharoitimizdan kelib chiqib, kitob bilan muayyan darajada muloqotda bo'lamiz. O'lchovli hayotimizning ma'lum bir qismini shunga sarf qilamiz. Ammo qanday kitob o'qish, uning ta'sir va oqibatlari, umuman, nega kitob o'qiymiz, shular haqida barchamiz ham chuqurroq o'ylab ko'rmaymiz.
Kitob – zamonlar to'lqinida suzuvchi, o'zidagi ma'nolar xazinasini ajdodlardan avlodlarga avaylab yetkazuvchi tafakkur kemasidir. Uning har bir sahifasi hikmatlarga boy va dillarga ro'shnolik kiritib, ezgu tuyg'ularni uyg'otmoqqa qodir. Shu bois so'nggi yillarda mamlakatimizda kitob mutolaasi va targ'iboti, kitobxonlik madaniyatini oshirishga oid qator qarorlar va farmonlar qabul qilinib, yurtimizning barcha hududlarida, xususan OTMlarda talabalar orasida kitobxonlikni keng targ'ib qilishga asosiy e'tibor qaratilmoqda.

